

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BEKMURODOVA SAODAT IKROMOVNA**

**MINTAQANI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY  
YO‘NALISHLARI (QASHQADARYO VILOYATI SANOAT  
KORXONALARI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Bekmurodova Saodat Ikromovna**

Mintaqani innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari (Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarini misolida)..... 3

**Бекмуродова Саодат Икромовна**

Основные направления инновационного развития региона (на примере промышленных предприятий Кашкадарьинской области)..... 33

**Bekmurodova Saodat Ikromovna**

Main directions of innovative development of the region (on example of industrial enterprises in Kashkadarya region)..... 67

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 72

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BEKMURODOVA SAODAT IKROMOVNA**

**MINTAQANI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY  
YO‘NALISHLARI (QASHQADARYO VILOYATI SANOAT  
KORXONALARI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4773 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qurbonov Alisher Boboqulovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Doschanov Tangribergan Doschanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Jurayev Xusan Otamurodovich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_:\_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz))

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I. S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d, professor

**T. J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotining evolyutsion rivojlanishi ijtimoiy–iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi mintqalar barqarorligini ta'minlamay turib iqtisodiy o'sishga erishib bo'lmashligini ko'rsatmoqda. Mintaqada mavjud resurslardan to'liq foydalanish masalasi bugungi kunda innovatsion rivojlantirishning ahamiyatini oshirmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda inovatsiyalarga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni rivojlantirish uchun yalpi ichki mahsulotning 5-7 foizi miqdoridagi mablag'ni ajratmoqda<sup>1</sup>. Buning natijasida ishlab chiqarishning yangi bosqichga ko'tarilishi, yangi ish o'rinlari va kasblarning vujudga kelishi, turmush farovonligining moddiy va madaniy darajada oshishi asosida mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotining o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Jaxonda mintaqalarning ijtimoiy – iqtisodiy yuksalishini ta'minlash uchun, iqtisodiyotning barcha jabhalarida inovatsiyalarni joriy qilish, uni davlat va xususiy tarmoqlar tomonidan moddiy, moliyaviy ko'maklashishini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Davlatlar tomonidan innovatsion infratuzulmani qo'llab quvvatlash asosida xorijiy mamlakatlarda bir qancha ilmiy natijalarga erishildi. Jumladan, AQShda sunniy intellekt infratuzulmasini rivojlantirish va ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini samaradorligini oshirish maqsadida 500 milliard dollarga teng bo'lgan "Stargate" loyihasini e'lon qildi<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy hususiyatlaridan kelib chiqib, ularni innovatsion rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy ishlar amalga oshirilmoqda. Mintaqalarda innovatsion iqtisodiy rivojlanishini qo'llab – quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, xususiy tarmoqda qulay kapital quyilmalarni sarflash muhitini va investitsiya jozibadorligini yaratish, ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, jumladan, davlat bilan hamkorlikda yangi innovatsion infratuzulmani barpo qilish, aholiga inovatsiyalarni joriy qilish asosida yangi ish o'rinlari va yangi kasblarni<sup>3</sup> shakllantirish kabi ishlarni amalga oshirish vazifalari quyildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Respublikamiz hududlarida tabiiy va mehnat resurslari hamda ularning salolhiyatini urganish, tarmoqlararo balansini ularning hududlar hususiyatlaridan kelib chiqib tuzish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida innovatsiyalarning rivojlaniishini, istiqbolini belgilash bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish ushbu mazuning dolzarbligini belgilaydi.

AQShning Kornel universiteti, Fransiyaning Insead biznes maktabi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti Global innovatsion indeks reytingini 20 sentabr kuni e'lon qildi. O'zbekiston Global innovatsion indeks reytingida 132 davlat orasida 86-o'rinni egalladi. Bundan avval mamlakatimiz reytingda 2020-yil 93-o'rin va 2015-yilda 122 o'rinlarni egallagan edi. Mamlakatimiz inovatsiyalarni joriy etish

<sup>1</sup>Manba:<https://www.oecd.org/eurasia/competitiveness-programme/eastern-partners/Strengthening-the-Role-of-Private-Finance-in-Infrastructure-Development-in-Eastern-Partner-Countries-RUS.pdf>. OECD 2020, 100 p.

<sup>2</sup> <https://zamin.uz/dunyo/143108-500-milliardlik-sunij-intellekt-lojihasi-stargate-elon-qilindi.html>

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi "2020 — 2022-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzulmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4565-son qarori// <https://lex.uz/docs/5188512>.

uchun mavjud resurslar va sharoitlar subindeksida o'tgan yilgi natijalaridan 6 pog'ona ko'tarilib 75 o'rinni; innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar subindeksida esa 18 pog'ona ko'tarilib, 100-o'rinni egalladi. Reytingga ko'ra, O'zbekistonning dunyo miqyosida kuchli indikatorlari quyidagilar: "Ilm-fan va muhandislik sohasida bitiruvchilar soni" 7-o'rin, "Biznesni yo'lga qo'yishning soddaligi" 8-o'rin, "Mehnat unumdorligi" 8-o'rin, "Kapitalni yalpi tarzda to'plash" 7-o'rin, "Ta'lim uchun davlat xarajatlari" 28-o'rinni egalladi.<sup>4</sup>

Hukumatimiz rahbari tomonidan 2017-yil 7-fevraldagi PF-44947 "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 - son "O'zbekiston – 30 strategiyasi to'g'risida" gi farmonlari, 2020-yil 1-maydagi PQ-4702 – son "Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish reytingini baholash tizimini joriy qilish to'g'risida" gi prezident qarori, 2020-yil 16-oktabrdagi PQ-4864-son "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzulmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir chora tadbirlari to'g'risida" gi prezident qarorlari ushbu ilmiy tadqiqot ishining yozishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasida fan va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" mavzusidagi yo'nalishga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mintaqani iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bunda innovatsiyani davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish, ularning omil va manbalarini aniqlash hamda hududiy xususiyatlarini ochib berish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar xorijiy va mamlakatimiz olimlari tadqiqotlarida ma'lum darajada o'rganilgan.

Chet el olimlari tomonidan mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida innovatsion faoliyatni kengaytirishga asosiy e'tibor qaratilgan. Xususan, P.Samuelsan, V.Nordxaus R.Nurks, A.Xirshman, U.Rostou, X.Zinger, Sh.Bikram, F.Daniel kabi olimlar izlanishlarida infratuzilma, uning mintaqaviy xususiyatlari, ta'sir etuvchi omillar hamda rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tilgan. MDH mamlakatlari olimlari M.Podprugin, L.Somartova, N.Poryadkinlar tadqiqotlarida mintaqalarning barqaror rivojlanishi o'rganilgan bo'lsa<sup>5</sup>, I.Raxmeeva, A.Gorbunova, L.Golovanova, M.Danilchuk, A.Novikovlarning<sup>6</sup> tadqiqotlarida mintaqaning

<sup>4</sup> Global innovation Index 2021 "Tracking innovation through the Covid-19 Crises".

<sup>5</sup>Подпрugin M.O. Устойчивое развитие региона: понятие, основные подходы и факторы // Российской предпринимательство.– 2012. – № 24. – С. 214-221; Сомартова, Л.В. Факторы устойчивого развития региональных социально-экономических систем / Л.В. Сомартова // Вестник СОГУ им. К.Л. Хетагурова. 2010. № 3. С. 22-27; Прядкина Н.Н. Зарубежный опыт управления социальноэкономическим развитием территорий // ВЕСТНИК ОГУ №8 (144)/август 2012. –с.150-155.

<sup>6</sup>Рахмеева И.И. Региональные особенности развития и пространственной организации производственной инновационной инфраструктуры: дисс...канд. экон. наук/ 08 00 05. Рахмеева Ирина Игоревна. – Екатеринбург, 2014. – 180 с; Горбунова А.Ю. Региональная инновационная инфраструктура и оценка значимости ее элементов, [Электронный ресурс] // Управление экономическими системами. 2014. №7 (67). С.1-14. Режим доступа: <http://uess.ru/uess67-672014/итем/29922014-07-25-07-> (дата обращения 20.03.2015); Голованова Л. А., Данилчук М. А. Зарубежный опыт реформирования транспортной инфраструктуры территорий // "Ученые

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda infratuzilmani rivojlantirish, uning omillarini tadqiq qilish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalasi A.Sodiqov, Sh.Nazarov, R.Alimov, A.Rasulev, A.Qodirov, X.Abulqosimov, B.Berkinov, T.Shodiyev, I.Kayumova, R.X.Ergashev, S.N. Xamrayeva kabi olimlar izlanishlarida tadqiq etilgan<sup>7</sup>. Mamlakat innovatsion infratuzilmasi, uning omillari, hududiy xususiyatlari hamda mintaqalarda rivojlantirish masalalarini o'rganishga G'ulomov S.S., Abulqosimov X., Berkinov B. X.Normurodov, kabi olimlar ilmiy-nazariy jihatdan hissa qo'shganlar<sup>8</sup>.

Mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, innovatsiyalarga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini barpo etishning ilmiy amaliy jihatlari kam o'rganilgan. Shuningdek, mintaqalarning tabiiy – iqtisodiy salohiyati va hususiyatlaridan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyat yetarlicha o'rganilmagan. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida hududning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish ushbu mavzuni tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qarshi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq, xususan, "Mintaqani innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi rejasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mintaqada sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda innovatsion rivojlanishning ilmiy nazariy asoslarini o'rganish;

innovatsiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari va unga tizimli yondashuvlarni tahlil etish;

innovatsion rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish;

---

заметки ТОГУ" Том 8, № 2, 2017. 231-237 с; Новиков А.Г. Зарубежный опыт инновационной инфраструктуры региона // Стратегия бизнеса. 2017, №9(41).

<sup>7</sup> Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика / Монография. А.М.Садыков: Ташкент, "Иктисод-молия", 2005. – 280 с; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов / Монография. Sh.X. Nazarov. Tashkent: IFMR, 2014. -212 s; Iqtisodiyotda tejamkorlik va mutanosiblikni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari. Sh.Shodmonov (va boshq.): TDIU. Monografiya. –T.:Adib nashriyoti, 2010. -256 b; O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot// Mualliflar jamoasi: R.Alimov, A.Rasulev, A.Qodirov va boshq.// S.S.G'ulomov taxriri ostida. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006, - 440 b; Abulqosimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. –T.: Akademiya, 2011. -188 b; O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot// Mualliflar jamoasi: R.Alimov, A.Rasulev, A.Qodirov va boshq.// S.S.G'ulomov taxriri ostida. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006, - 440 b; Maxmudov N.M. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosatining rolini oshirish yo'llari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: TDIU. 2015-yil, 23-29 b; Abulqosimov X., Berkinov B. Davlatning makroiqtisodiy siyosati. –T.: Akademiya, 2007. -198 b; Abulqosimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. –T.: Akademiya, 2011. -188 b; dok. ... dis. –T.:, Shodiyev T. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, intellektuallashtirish va diversifikatsiyalash asosida iqtisodiy o'sish sifatini oshirish// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –T.: 2011, № 1 Ergashev R.X., A.D.Ravshanov, A.B.Qurbonov . Innovatsiyalarni tashkil etish. Darslik.Qarshi.. Intellekt nashriyoti., 2024 yil.-15 bet. Xamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish: Monografiya; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. –28 b.

<sup>8</sup> Qayumova I.O. O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning yangi sifat bosqichi jarayonlarini ekonometrik tadqiqoti. Iqt. fan. dok. ... dis. –T.:, 2012. – 289 b. Sharifxo'jayev Sh.O., Voxidova M.X. Mamlakatimizda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning zaruriyati// Iqtisod va moliya. 2018, №5. 61-66 b.

Qashqadaryo mintaqasini innovatsion rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilish;

mintaqa sanoat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlil qilish va barqarorligiga ta'sirini o'rganish;

mintaqa to'qimachilik sanoati klasterlarida innovatsion texnologik xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash;

mintaqani innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

mintaqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish istiqbollarini prognoz qilish;

**Tadqiqotning obyekti** Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarini tanlab olingan, monografik tadqiqot to'qimachilik korxonlarida olib borilgan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib mintaqa iqtisodiyoti o'sishini ta'minlashda innovatsiyani rivojlantirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy yondashuv, monografik tahlil, guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlanma kuzatuv, iqtisodiy-statistik, ekonometrik baholash, korrelyatsion va regression tahlil, ekstrapolyatsiya va ekspert kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

mintaqa innovatsion klasterlarida yangi turdagi mahsulotlar yaratishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan hamda innovatsion klasterlar faoliyat ulushini aniqlovchi ko'rsatkichlarga uslubiy yondashuv takomillashtirilgan;

innovatsiyalar hisobiga yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir birlikka o'sishi joriy qilinadigan innovatsiyalar sonini 1029 taga oshirishi ilmiy asoslangan hamda ularning real sektor va hudud bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan;

klasterlarning innovatsion xarajatlar sarflash hisobiga oshgan qo'shimcha daromad ( $D_d$ ), xarajat ( $L_d$ )lar tahlili asosida umumiy holda  $D_d > L_d$  ( $0,69 > 0,39$ ), xususiy holda  $D_d > L_d$  ( $0,721 > 0,531$ ) ekanligi aniqlanib, innovatsion faoliyatning hayotiy sikli  $D_d = L_d$  bo'lgunga qadar davom etishi ilmiy asoslandi hamda innovatsion faoliyat siklini uzaytiruvchi innovatsion klasterning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmi taklif etildi;

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti va tarmoqlari tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mintaqada iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan resurslarni hududlar hususiyatidan kelib chiqib, tizimlashtirilgan;

mintaqada iqtisodiy taraqqiyotini tadqiqot usullari orqali baholashning mantiqiy davomiyligini ushlab qolish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

innovatsion klasterlarning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlaridagi ulushi hamda yangi kasblarni baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir foizga oshishi natijasida innovatsiyalarni yaratish 4,5 foizga shirishi hamda uning prognoz funksiyasi ishlab chiqilgan;

ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari o'rganilib, mintaqada foydalanish mumkin bo'lgan yondashuv va yo'nalishlari ochib berilgan;

mintaqada ishlab chiqarish darajasiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion va regression tahlil usullari orqali baholash yordamida ekonometrik modellarning elastiklik koeffitsiyentlari aniqlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy-tadqiqot ishining ishonchliligi mazkur ishda qo'llanilgan barcha yondashuvlar va uslublarning jarayonga mosligi, statistik ko'rsatkichlar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy ish natijalari tegishli davlat organlarida sinovdan o'tkazilib, tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishida erishilgan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati sifatida dissertatsiyada o'rganilgan innovatsion klasterlarning innovatsion jarayonda beradigan samarasi, unga ta'sir qiluvchi omillar harakatini baholash va uning hududiy xususiyatlaridan kelib chiqib, innovatsiyani rivojlantirishga bag'ishlangan amaliy chora – tadbirlar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyatining Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shuningdek, hududiy taraqqiyotini ta'minlovchi, innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi turli davlat organlari va xususiy sektorlar faoliyatini amalga oshirishda, innovatsiyani joriy qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqishda, Shuningdek oliy o'quv yurtlarida "Innovatsion iqtisodiyot", "Innovatsiyalarni tashkil etish", "Mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot", "Mintaqa iqtisodiyoti" fanlarini o'qitishda va o'quv dasturlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqada innovatsion rivojlantirish va hudud barqarorligini ta'minlashda innovatsion klasterlarni joriy qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida mintaqada innovatsion klasterlarida yangi turdagi mahsulotlar yaratishning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan hamda innovatsion klasterlar faoliyat ulushini aniqlovchi ko'rsatkichlari bo'yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimining 2023-yil 16-avgustdagi "Mahallalarda infratuzilmani yaxshilash orqali aholiga qulay sharoitlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 435 son qaror ijrosi bo'yicha № 399-12-0-Q/22-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi 2024-yil 16-dekabrda № 01-07-175-son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palata Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 28-yanvardagi № 12-11/117 son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palataning 2025-yil 7-fevraldagi № 04-41-1480-son ma'lumotnoma). Natijada Qashqadaryo viloyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, innovatsiyalarni baholovchi ko'rsatkichlar va ularni hisolash bo'yicha yondashuvlar tizimlashtirilgan.

Innovatsiyalar hisobiga yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir birlikka o'sishi joriy qilinadigan innovatsiyalar sonini 1029 taga oshirishi ilmiy asoslangan hamda

ularning real sektor va hudud bo'yicha natijaviy ko'rsatkichlarini tizimlashtirish bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 12-apreldagi "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori ijrosi bo'yicha № 158-12-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. O'zbekiston savdo sanoat palata Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 28-yanvardagi № 12-11/117-son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palatasining 2025-yil 7-fevraldagi № 04-41-1480-son ma'lumotnoma). Ushbu takliflarni qo'llash asosida mintaqaning iqtisodiy barqarorlik darajasini ta'minlashda sanoatni tuman va shaharlar kesimida joylashtirish imkoniyatini yaratgan;

Qashqadaryo hududida klasterlarning innovatsion xarajatlar sarflash hisobiga qo'shimcha daromad ( $D_d$ ), xarajat ( $L_d$ ) tahlili asosida umumiy holda  $D_d > L_d$  ( $0,69 > 0,39$ ), xususi holda  $D_d > L_d$  ( $0,721 > 0,531$ ) ekanligi aniqlanib, innovatsion faoliyatning hayotiy sikli  $D_d = L_d$  bo'lgunga qadar davom etishi ilmiy asoslandi hamda innovatsion faoliyatni siklini uzaytiruvchi innovatsion klasterning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmi bo'yicha taklifi Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish asosida chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-98-son qarorining ijrosi bo'yicha belgilangan №34-12-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi 2024-yil 16-dekabrdagi № 01-07-175- son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palata Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 28 yanvardagi № 12-11/117 son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palataning 2025-yil 7-fevraldagi № 04-41-1480-son ma'lumotnoma). Ushbu taklifni qo'llash asosida viloyat iqtisodiyoti klasterlarning innovatsion texnologik transferlarning daromad va xarajatlari tahlili asosida hayotiy sikli belgilab olingan.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning 2025-2029-yillar uchun bashorat ko'rsatkichlari bo'yicha taklif Qashqadaryo viloyati hokimining 2022-yil 12-apreldagi "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori ijrosi bo'yicha № 158-12-0-Q/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi 2024-yil 16-dekabrdagi № 01-07-175-son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palata Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2025-yil 28-yanvardagi №12-11/117-son ma'lumotnoma, O'zbekiston savdo sanoat palataning 2025-yil 7-fevraldagi № 04-41-1480-son ma'lumotnoma). Mazkur model asosida Qashqadaryo viloyatining 2022-2026-yillarda YaHMning o'sish sur'atiga ko'ra 5,5 foizdan 6,8 foizgacha yetishi hamda uning tarkibidagi omillar yalpi unumdorligi ham o'suvchi tendensiyaga ega bo'lishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan

o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 2 ta xorijiy va 7 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betni tashkil etadi. Dissertatsiya ishida 28 ta rasm va 27 ta jadvallar ishlab chiqilgan va tahlil qilingan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari” nomli birinchi bobida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning o‘rni va ularning shakllanish bosqichlari, yo‘nalishlari, jumladan, innovatsion tizim, uning infratuzilmasining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq nazariy masalalar, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar asoslab berilgan.

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, ishlab chiqarish va tashkiliy jihatlar muhim. Shuningdek, mintaqa ichidagi hamda mamlakatdagi o‘zaro aloqalarni ta‘minlovchi innovatsion infratuzilma ham barqaror rivojlanishning asosiy omil hisoblanadi. Innovatsiyalarga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiyotga bevosita ta‘sir qilib, multiplikativ samarasi o‘rtacha dunyo mamlakatlarida 1,59 dan yuqori. Mazkur kattalik Rossiyada 2,05 ga teng<sup>9</sup>. BMT va Oksford universiteti tadqiqotlarini ko‘rsatishicha, innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi 2022-yilda e‘lon qilingan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirishini 72 foizga ta‘minlovchi omil hisoblanadi<sup>10</sup>. Demak, innovatsiya faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish bevosita barqaror o‘sinh bilan bog‘liq ekan. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi o‘z navbatida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishga ham bog‘liq.

Innovatsiya tushunchasi mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo‘llash oqibatida mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bildirar edi. Innovatsiyaning ushbu ta‘rifi va Y.Shumpeterning ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to‘g‘risidagi konsepsiyasi innovatsiyalar nazariyasiga bo‘lgan ikkita keng tarqalgan yondashuvdan birining asosini tashkil etadi. Birinchi yondashuv – yangi omillar to‘g‘risidagi tushunchaga asoslangan, ikkinchisi – yangi mahsulot yoki texnologiyaga asoslangan

“Innovatsiya” tushunchasini tushunishga bo‘lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdagi texnika, texnologiya va boshqa yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatining innovatsiyaviy va ilmiy-texnik jihatlarini teng deb biladi, ammo bu har


---

<sup>9</sup> Давыдова О.А. Инструменты развития производственной инфраструктуры города Москвы // Вестник РЕУ им. Г. В. Плеханова. 2017, №4(94). С.144-153.

<sup>10</sup> Battacharya et al., “The New Climate Economy Report,” Global Commission on the Economy and Climate, 2018, at <https://newclimateeconomy.report/2018>.

doim ham to'g'ri emas. Ammo ushbu yondashuv yetarlicha keng tarqalgan, chunki uning asosida yotgan innovatsiyalarni ilmiy-texnik nuqtai nazardan ajratish tamoyili, innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati va maqsadlarini aks ettiradi. Ushbu qarashlarni umumlashtirish asosida mintaqalarning innovatsion iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha mualliflik ta'rifini beramiz. Fikrimizcha, mintaqa innovatsion rivojlanishi - bu mintaqaning tabiiy - iqtisodiy salohiyatidan ilm-fan taraqqiyotiga asoslangan hududning strategik istiqbolini inobatga olib samarali foydalanish jarayonidir.

Fikrimizcha, mintaqaviy innovatsiyaning rivojlanishini ekzogen va endogen turga bo'lishimiz mumkin. Ekzogen turida, innovatsion infratuzilmasining mavjudligi, hududda soha va tarmoqlarni tashkil qilish, kengayishi va rivojlanishi asosida o'rganiladi. Endogen usulda esa, innovatsion infratuzilma obyektlari o'rtasidagi uzviylik, mazkur soha kengayishini va rivojlanishini ta'minlaydi.



**1-rasm. Mintaqaviy innovatsion tizimning asosiy yo'nalishlari<sup>11</sup>**

Innovatsion siyosat soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiya va boshqa rag'batlantiruvchi choralarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, intellektual mulk huquqlari, patent tizimi va boshqa qonunchilik me'yorlari innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Hududiy konsentratsiya – mintaqada o'zaro innovatsion hamkorlikda ishlaydigan korxonalar majmui. Bu subektlarning geografik yaqinligi ularning samarali hamkorlik va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

O'zaro aloqalar va hamkorlik - innovatsion tizimdagi subyektlar o'rtada samarali aloqalar va hamkorlik mavjud bo'lishi zarur. Bu aloqalar bilim almashinuvi, texnologik kooperatsiya, va kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Mahalliy tadbirkorlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va davlat organlari o'rtadagi hamkorlik innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi va sifatini oshiradi.

Innovatsion siyosat va rag'batlantirish – innovatsiyalarni joriy qilishni qo'llab – quvvatlash, rag'batlantirish, ilmiy-texnikaviy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Kadrlar va bilimlarni boshqarish -mintaqaviy innovatsion tizimda malakali kadrlar tayyorlash va ularni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari mintaqaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan mutaxassislarni tayyorlash bilan shug'ullanadi.

<sup>11</sup> Ilmiy tadqiqot natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Innovatsion jarayonlar va natijalar - mintaqaviy innovatsion tizim innovatsion jarayonlarni, ya'ni yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va joriy qilishni o'z ichiga oladi.

1-jadval

### Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash tizimi<sup>12</sup>

Innovatsion faoliyatning umumiy samaradorligi	$Ifus = K_{fao} (I_{i,sk} * S_k^k)$ ; Ifus - innovatsion faoliyatning umumiy samaradorligi; $F_{a_{ok}}$ - faoliyatni amalga oshirish koeffitsiyenti; $I_{i,sk}$ - innovatsion ishlanmalarni sotish hajmi; $S_k^k$ - sarflarni kamaytirish koeffitsiyenti;
Innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish imkoniyatlari (ITS)	1. $ITS1 = Ps / Obtx$ ; Ps - innovatsion ishlanmalar soni; $Obtx$ - olib borilgan tadqiqotlar xajmi. 2. $ITS2 = Ry / Ziti$ , Ry - innovatsion ishlanmalar yaratilgani uchun berilgan rag'bat; $Itiux$ - ilmiy tadqiqot ishlarining umumiy xarajatlari. $ITS2 = Pbst / Itbs$ ; $Pbst$ - innovatsion ishlanmalarni birinchi marta sotishdan tushgan tushum; $Itbs$ - ilmiy tadqiqot ishlari uchun bir martalik sarflar
Sifat ko'rsatkichlari innovatsion leveraj (IL)	1. $IL1 = IjYado' / xo'$ ; $IjYado'$ - innovatsiya joriy qilingandan so'ng yalpi daromadning o'sishi; $xo'$ - xarajatlarning o'sishi. 2. $IL2 = Ijfo' / Ijxo'$ ; $Ijfo'$ - innovatsiya joriy qilingandan so'ng olingan foydaning o'sishi; $Ijxo'$ - innovatsiyalarni joriy qilish xarajatlarining o'sishi.
Nisbiy ko'rsatkichlar tizimi	1. $Yafu = Ims / Ufo'$ ; $Yafu$ - Yalpi daromadda foydaning ulushi; Ims - innovatsion mahsulotning sotish; $Ufo'$ - umumiy foydaning o'sishi; 2. $Ttf = Ytsf / Yaf$ ; $Ttf$ - takomillashtirilgan tovarni sotishdan olingan foydaning ulushi. $Ytsf$ - yangi tovar va xizmatlarni sotishdan olingan foyda; $Yaf$ - yalpi foyda;
Innovatsion tizimning obsolyut ko'rsatkichlari:	1. $Xq = Ijrx - Hs$ ; $Xq$ - xarajatlarning qisqarishi; $Ijrx$ - innovatsiyalarni joriy qilish uchun rejalashtirilgan xarajatlar; Hs - haqiqiy sarflar; 2. $Yafo' = Ttfo' - Ijxq$ ; $Yafo'$ - yalpi foydaning o'zgarishi; $Ttfo'$ - takomillashtirilgan tovarlarni sotishdan olingan foyda o'sishi; $Ijxq$ - innovatsiyalarni joriy qilish evaziga xarajatlarning qisqarishi;
Cekli samaradorlik	$Md = Qimdo' / Qijxo'$ ; Md - chekli daromad. $Qimdo'$ - qo'shimcha birlik innovatsion mahsulotni sotishdan olingan daromadning o'sishi; $Qijxo'$ - qo'shimcha innovatsiyalarni joriy qilish natijasida xarajatlarining o'shishi;
Innovatsion klasterlar faoliyat ulushini aniqlovchi ko'rsatkichlar	
1. $YaYSo' = PBYS / MYS$ ; $YaYSo'$ - Mintaqada yangi yo'nalishlar sonining o'sishi; PBYS - Paydo bo'lgan yo'nalishlar soni; MYS - Mavjud yo'nalishlar soni; 2. $YMSo' = PBMS / BMS$ $YMSo'$ - Mintaqada yangi mutaxassisliklar sonining o'sishi; PBMS - Paydo bo'lgan mutaxassisliklar soni; BMS - barcha mutaxassisliklar soni; 3. $Iku = Diks / Jk$ . Mintaqada innovatsion klasterlarning ulushi; Diks - Aniqlanayotgan davrda innovatsion klasterlar soni; Jk - Jami klasterlar;	

1-jadvalda innovatsion jarayonlarning samaradorligi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion tizim natijalari yangi mahsulotlar va xizmatlar, iqtisodiy o'sish, va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mahalliy va global hamkorlik, mintaqaviy innovatsion tizim mahalliy va global miqyosida hamkorlikni rivojlantiradi. Xalqaro tajriba va texnologiyalarni mintaqaga olib kirish, global tarmoqlarda hamkorlik qilish, va xalqaro bozorlarga chiqish orqali innovatsion salohiyatni oshirishga qaratilgan. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va global texnologik trendlarni kuzatib borish mintaqaviy innovatsion tizimni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, innovatsion infratuzulma rivojlantirish ham ushbu jarayonni tezlashtiradi. Innovatsion infratuzulma - bu mintaqada innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan tashkilotlar, muassasalar va tarmoqlarning majmuasidir. Bunga

<sup>12</sup> Ilmiy tadqiqot natijalari asosida muallif ishlanmasi.

texnoparklar, biznes-inkubatorlar, tadbirkorlik markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari kiradi. Innovatsion infratuzilma yangi texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy qilishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, Qashqadaryo viloyatini innovatsion rivojlantirishda innovatsiyaning klaster xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. Innovatsion klasterlar — bu mintaqada joylashgan va o'zaro bog'langan korxonalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlardan iborat tarmoqlardir. Bu tarmoqlar bir-birini to'ldiradi va umumiy innovatsion maqsadlar uchun birgalikda ishlaydi. Klasterlar mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni intensivlashtirishga hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish faoliyatning o'rta va qisqa muddatli davrlarida yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni yaratish natijasi korxonalarda innovatsiyalar iqtisodiy samaradorligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni baholash masalasi muhim ahamiyatga ega.

Har qanday innovatsion loyiha barcha resurslar va vaqt cheklovlariga mos kelishi kerak. 1-jadvalda klasterning barcha subyektlarining innovatsion va investitsion siyosati, shuningdek, innovatsion faoliyat uchun belgilangan samaradorlik mezonlari doirasida tizimlashtirilgan.

2019-2023-yillar davomida respublikamiz bo'yicha 3,3 barobar oshganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar qiymati 2019-2023-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, viloyatlarida 1-3 marta oshgan, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Toshkent sh., Surxondaryo viloyatlarida 3-4 marta oshgan, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida 4-8 martaga oshgan. Qashqadaryo viloyati innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish qiymati o'sish darajasi O'zbekiston Respublikasi hududlarida bo'yicha yuqori o'rinlarni egallaydi. Innovatsiyalar uchun sarflanadigan xarajatlarning o'sish darajasi bo'yicha esa quyi darajani egallaydi.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmida innovatsiyalarning ulushi 18,6 foizni tashkil qilib, 2024-yilda 5416,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 42,9 foizga oshgan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida innovatsion mahsulotlar hajmi 2024-yilda 24953,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 3,2 barobarga oshgan. Xizmatlarda innovatsion mahsulotlar hajmi 2024-yilda 9560,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, keyingi besh yil ichida 185,9 foizga oshgan. Qurilish pudart sohasida esa 2,6 martaga oshgan, innovatsion mahsulotlar sanoat va agrar sektorga to'g'ri keladi.

Innovatsion loyihaning iqtisodiy samaradorligi loyiha bilan bog'liq xarajatlar va natijalar nisbatini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyat natijalarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar qo'llaniladi: innovatsion mahsulotlar hajmi va innovatsion mahsulotlar ulushi. Shu munosabat bilan statik va dinamik ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

**Qashqadaryo viloyatida 2019-2024 yilda tarmoqlar bo'yicha innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish xajmi.<sup>13</sup>**

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2019-yil.	2020-yil.	2021-yil.	2022-yil.	2023-yil.	2024-yil.	2019-2024-yillardagi o'zgarish, %
Sanoat ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	20360,1	14612,3	18771,9	22814,7	28259,6	29097,4	142,9
Sanoat ishlab chiqarishda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	3257,6	2630,2	3566,7	4106,6	4804,1	5416,8	166,3
Sanoat ishlab chiqarish hajmida innovatsiyalarning ulushi	%	16,0	18,0	19,0	18,0	17,0	18,6	116,4
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jalik mahsulotlari hajmi	mlrd. so'm	20415,1	24348,8	28275,6	32227,2	40167,9	57230,2	280,3
Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	7757,7	9739,5	11593,0	13213,2	16468,8	24953,4	321,7
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jalik mahsulotlari hajmida innovatsiyalarning ulushi, %	%	38,0	40,0	41,0	41,0	41,0	43,6	114,7
Xizmatlar hajmi	mlrd. so'm	8800,9	10349,5	12907,4	15945,8	19518,4	29949,7	340,3
Xizmatlarda innovatsion mahsulotlar hajmi	mlrd. so'm	3344,3	3415,3	4388,5	5421,6	6831,4	9560,3	285,9
Xizmatlar hajmida innovatsiyalarning ulushi, %	%	38,0	33,0	34,0	34,0	35,0	32,1	84,3
Qurilish pudrat ishlari xajmi	mlrd. so'm	4365,3	4832,6	6336,6	7831,1	9246,2	13815,1	316,5
Qurilish pudrat ishlari innovatsion mahsulotlar xajmi	mlrd. so'm	349,2	434,9	380,2	548,2	647,2	874,7	250,5
Qurilish pudrat ishlari innovatsion mahsulotlar xajmi	%	8,0	9,0	6,0	7,0	7	6,3	X

Dissertatsiyaning “Qashqadaryo mintaqasi iqtisodiyoti barqarorligi va sanoatni innovatsion rivojlantirishining hozirgi holati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqada innovatsiyalarning o'rni va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari, mintaqada joriy qilinadigan innovatsiyalarning samaradorligini baholashni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi tahlili hamda mintaqada innovatsiyalar xisobigan yaratilgan qo'shilgan qiymatning o'sish parametrlari tahlil etilib, innovatsiyalarni joriy qilish bosqichlari va natijalari tizimlashtirilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida innovatsiyalarning marjinal daromad va xarajatlari tahlili asosida “Innovatsion klasterlarning” tashkiliy iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan.

<sup>13</sup> Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

### 3-jadval.

#### Qashqadaryo viloyatida 2010-2023 yillarda joriy qilingan innovatsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari.<sup>14</sup>

Ko'rsatkichlar	2010-yil.	2015-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2021-yil.	2022-yil.	2023-yil.	2023 /2010 yillar, marta	2023 /2015 yillar, marta	2023 /2019 yillar, marta
Joriy qilingan innovatsiyalar soni birlik	8	53	89	68	64	73	279	33,7	5,38	3,2
Bir birlik joriy qilingan innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar, mlrd.so'm	0,1	0,4	0,3	0,4	1,1	1,0	0,2	1,2	0,36	0,5
Bir birlikka to'g'ri keladigan joriy qilingan innovatsiya xajmi, mlrd.so'm	0,9	0,6	1,2	1,8	1,7	2,2	0,9	1,1	1,53	0,8
bir birlik joriy qilingan innovatsiyalardan olingan qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm	0,8	0,9	1,1	1,4	0,6	0,6	1,2	1,5	1,22	1,1

Qashqadaryo viloyatida joriy qilingan innovatsiyalar 2023-yilda 279 tani tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 33,7 martaga oshgan. Bir birlik joriy qilingan innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar 0,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 1,2 martaga oshgan, 2015-yilga nisbatan esa 0,64 birlikka, 2019-yilga nisbatan 0,5 birlikka kamaygan. Bir birlik joriy qilingan innovatsiyalar xajmi 2023-yilda 2010-yilga nisbatan 0,1 birlikka oshgan. Bir birlik innovatsiyaga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 2023-yilda 1,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 0,5 birlikka oshgan.

### 4-jadval

#### Qashqadaryo viloyatida joriy qilingan innovatsiyalar hisobidan yaratilgan qo'shilgan qiymat<sup>15</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar									2023/2010 yilga nisbatan o'zgarish, marta
	2010	2015	2015	2019	2019	2020	2021	2022	2023	
Joriy qilingan innovatsiyalar soni birlik (s)	$s_1$	$s_2$	$s_1$	$s_2$	$s_1$				$s_2$	X
	8	52	52	88	88	68	64	74	279	33,73
bir birlik joriy qilingan innovatsiyalardan olingan qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm (q)	$q_1$	$q_2$	$q_1$	$q_2$	$q_1$				$q_2$	X
	0,8	0,9	0,9	1,1	1,1	1,4	0,6	0,6	1,22	1,5
(s)ning (q) ga nisbatan elastikligi	13,25		2,55		10,1					
	4,5									X

<sup>14</sup> Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidantuzilgan.

<sup>15</sup> Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Sanoat va agrar sektorlarda innovatsiyalarni qo'llash, traditsion iqtisodiy sektorlarda zamonaviy texnologiyalarning tatbiq etilishi, masalan, sanoat avtomatizatsiyasi, raqamli qishloq xo'jaligi, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Quyida biz joriy qilingan innovatsiyalarning qo'shilgan qiymatdagi hissasining oshib borishini bir-biriga bog'liq holda o'sishini tahlil qilamiz. Bu holatlarini tahlil qilish orqali Qashqadaryo viloyatida joriy qilingan innovatsiyalar hisobidan yaratilgan qo'shilgan qiymatni o'zgarib borishini ko'rishimiz mumkin.

Mintaqaning innovatsion rivojlanish yo'nalishlari, mintaqadagi korxonalar va tashkilotlar xorijiy texnologiyalarni import qilish orqali o'z ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirmoqda. Innovatsion mahsulotlarini tarmoqlar bo'yicha ulushi turlicha bo'lib, tarmoqlararo balansini ta'minlashda strategik dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonni A.Marshalning elastiklik nazariyasidan foydalanib, Qashqadaryo mintaqasi bo'yicha joriy qilingan innovatsiyalarning qo'shilgan qiymatga ko'ra tebranishini tahlil qilamiz.

Qashqadaryo mintaqasida joriy qilingan innovatsiyalarning qo'shilgan qiymatning o'sishiga nisbatan moyilligi innovatsion jarayonning faolligini baholashning asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Buni elastiklik koeffitsiyenti orqali ifodalash mumkin

$$R_q^e = \frac{\Delta c\%}{\Delta q\%} \quad (1)$$

Bu yerda:  $R_q^e$ - mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo'shilgan qiymatlariga nisbatan elastikligi.

$\Delta s$  – birinchi va ikkinchi yildagi joriy qilingan innovatsiyalar miqdorining o'zgarishi(birlik);

$\Delta q$  – birinchi va ikkinchi yillardagi hosil qilingan qo'shilgan qiymatning o'zgarishi(birlik).

$$\Delta c\% = \frac{\Delta S}{S} * 100 \quad (2) \quad \Delta q\% = \frac{\Delta q}{q} * 100 \quad (3)$$

2-3 –formulalarni 1 – formulaga qo'ysak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$R_q^e = \frac{q}{s} * \frac{\Delta s}{\Delta q} \quad (4)$$

Ushbu formula orqali biz ma'lum bir vaqtdagi mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo'shilgan qiymatlariga nisbatan tebranishini hisoblashga erishamiz. Ammo uzoq vaqt davomidagi o'rtacha tebranishini hisoblashda quyidagi formulani taklif qilamiz:

$$R_e = \frac{\left( \frac{(c_2 - c_1)}{(c_1 + c_2)/2} \right)}{\left( \frac{(q_2 - q_1)}{(q_1 + q_2)/2} \right)} \quad (5)$$

$R_e$  - mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatlariga nisbatan elastikligi.

$c_1, c_2$  - birinchi va ikkinchi yildagi joriy qilingan innovatsiyalar soni, birlik.

$q_1, q_2$  - birinchi va ikkinchi yillardagi hosil qilingan qo‘shilgan qiymat, so‘m.

4-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar asosida mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatlariga nisbatan elastikligini hisoblaymiz.

$$\begin{aligned} (R_{q(2010-2015yy)}^e) &= \frac{\frac{(52-8)}{2}}{\frac{(0,9-0,8)}{2}} = \frac{1,47}{0,112} = 13,25(6) & (R_{q(2015-2019yy)}^e) &= \frac{\frac{(88-52)}{2}}{\frac{(1,1-0,9)}{2}} = \frac{0,51}{0,2} = 2,55(7) \\ (R_{q(2019-2023yy)}^e) &= \frac{\frac{(279-88)}{2}}{\frac{(1,22-1,1)}{2}} = \frac{1,04}{0,103} = 10,1(8) & (R_{q(2010-2023yy)}^e) &= \frac{\frac{(279-8)}{2}}{\frac{(1,22+0,8)}{2}} = \frac{1,89}{0,42} = 4,5(9) \end{aligned}$$

Yuqoridagi hisob – kitoblardan ko‘rinib turibdiki, 2010-2015-yillar davomida qo‘shilgan qiymatning 1 foizga oshishi joriy qilingan innovatsiyalarning sonini 13,25 foizga oshishiga olib kelgan. Mos ravishda 2015-2019-yillar davomida 2,55 foizga, 2019-2023-yillar davomida 10,1 foizga oshgan. Keyingi 10 yillik, ya‘ni 2010-2023-yillar o‘zgarishni hisobga olsak qo‘shilgan qiymatning 1 foizga oshishi joriy qilinadigan innovatsiyalarni 4,5 foizga oshishini ko‘rishimiz mumkin.

4 – formuladagi elastiklik koeffitsiyenti orqali chiziqli funksiyani hosil qilish orqali keyingi o‘zgarishlarni ham tahlil qilishimiz mumkin.

4 – formuladagi  $\frac{\Delta s}{\Delta q}$  o‘zgarishni **a** bilan belgilab olsak uni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$R_q^e = a * \frac{q}{s} \quad (10)$$

Mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatlari o‘rtasidagi munosabat to‘g‘ri bo‘lganligi sababli uning chiziqli funksiyasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$S=b+a q \quad (11)$$

Bu yerda **b, a** – parametrlar 4-jadvalda keltirilgan statistik ma‘lumotlar va 6-formula asosida hisoblab topiladi. Jumladan, 2010-2023-yillardagi o‘zgarish bo‘yicha joriy qilingan innovatsiyalar miqdorining chiziqli funksiyasini hosil qilish mumkin. Bizda 2023-yil uchun ( $R_q^e = 4,5$ ) mintaqada joriy qilingan innovatsiyalarning ular hisobidan yaratilgan qo‘shilgan qiymatlariga nisbatan elastikligi, ( $S=279$ ) joriy qilingan innovatsiyalar miqdori, ( $q=1.22$ ) hosil qilingan qo‘shilgan qiymatlar ma‘lum. Ushbu ko‘rsatkichlarni 10-formulaga qo‘ysak quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$4,5 = a * \frac{1,22}{279}, \quad a = 1029,1$$

Endi mavjud ma'lumotlarni 6 funksiyaga quyib **b** parametrni aniqlab olamiz.

$$279 = b + 1029,1 * 1,22, \quad b = -976,5$$

$$S = -976 + 1029q \quad (12)$$

Ushbu hosil qilingan funksiya 2023-yildagi holatni ifodalaydi. Shu bilan birga keyingi yillarda qo'shilgan qiymatning oshishi joriy qilinadigan innovatsiyalarning miqdorining qanchaga o'sishini hisoblash mumkin.


### 5-jadval

#### Qo'shilgan qiymat oshishi evaziga joriy qilinadigan innovatsiyalar sonining o'zgarishi<sup>16</sup>

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2015-yil	2019-yil	2023-yil	Qo'shilgan qiymat oshishi evaziga joriy qilinadigan innovatsiyalar sonining o'zgarishi, birlik		
Joriy qilingan innovatsiyalar soni birlik (c)	8	52	88	279	567(288)	876(597)	1308(1029)
bir birlik joriy qilingan innovatsiyalardan olingan qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm(q)	0,8	0,9	1,1	1,22	1,5(0,28)	1,8(0,58)	2,22(1,0)

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda bir birlik joriy qilingan innovatsiyalarga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 1,22 mlrd. so'mni tashkil qilib, 279 ta innovatsiyalar joriy qilingan. 12–chiziqli funksiya orqali qo'shilgan qiymat hajmining o'sishi asosida joriy qilinadigan innovatsiyalar sonining o'zgarishini tahlil qilishimiz mumkin. Jumladan, qo'shilgan qiymat 2023-yildagiga nisbatan 0,28 mlrd. so'mga oshganda joriy qilinadigan innovatsiyalar soni 288 birlikka oshadi, 0,58 mlrd. so'mga oshganda 597 birlikka oshadi, 1 mlrd. so'mga oshganda joriy qilinadigan innovatsiyalar soni 1029 ta oshishini ko'rishimiz mumkin. Qashqadaryo viloyatida paxta –to'qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qilgan bo'lib, shundan, faqat 9-ta ip-kalava, mato, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotiga klasterlarning kirib kelishining dastlabki ko'rinishlari xalos. 2017-yildan buyon agrar sohada klasterlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan.

<sup>16</sup> Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



**3-rasm. Innovatsiyalarni joriy qilish bosqichlari va natijalari**

Qashqadaryo viloyatida ayrim paxta – to‘qimachilik klasterlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari<sup>17</sup>

№	Klaster nomi	Kitob ip yigiruv MChJ				2023 yilda 2020 yilga nisbati, marta	Oqsaroy tekstil MChJ				2023 yilda 2020 yilga nisbati, marta	EMG Inter Investment MChJ				2023 yilda 2020 yilga nisbati, marta
		Yil	2020	2021	2022		2023	2020	2021	2022		2023	2020	2021	2022	
1	Sof tushum (mln so‘m)	21445	47 422	175 785	195211	9,1	137 823	167 498	180 172	445 684	3,2	684	86 386	222 947	207 925	304,0
2	Jami xarajat (mln so‘m)	21 124	47 401	176 068	194834	9,2	137 593	166 568	128 953	403 892	2,9	684	85 848	217 291	204 452	298,9
3	Sof foyda (mln so‘m)	321	21	-283	377	1,2	230	930	51219	41792	181,7		538	5 656	3 473	X
4	Rentabellik (%)	1,5	0,04	x	0,19	0,1	0,17	0,56	39,7	10,3	61,9		0,6	2,6	1,7	X
5	Paxta xomashəsi (tn)	13 663	13 935	14 010	14 265	1,0	30 835	31 050	31 265	31 965	1,0	15 330	15 440	15 820	1580	1,04
6	paxa hosildorligi (s/ga)	21,5	22,0	22,1	22,5	1,0	30,5	30,7	31,0	31,6	1,04	31,8	32,0	32,8	33,2	1,04
7	Yer maydoni (ga)	6347	6347	6347	6347	1,0	10100	10100	10100	10100	1,00	4819	4819	4819	4819	1,00
7.1	shu jumladan: klasterlarda (ga)	225	225	225	225	1,0	594	594	594	594	1,00	1321	1321	1321	1321	1,00
7.2	Fermer (ga)	6122	6122	6122	6122	1,0	9506	9506	9506	9506	1,00	3498	3498	3498	3498	1,00
8	Tola hajmi (tn)	4510	4 599	4 623	4 707	1,0	10 176	10 247	10 317	10 548	1,04	5059	5095,2	5220,6	5273,4	1,04
9	Ip-kalava (tn)	9000	9000	9000	9000	1,0	20000	20000	20000	20000	1,00					
10	Mato (mln PM)	3,6	3,6	3,6	3,6	1,0	3	3	3	3	1,00					
11	Kiyim (mln dona)	4,5				1,0					1,00					

<sup>17</sup> Qashqadaryo viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

EMG Inter Investment MChJning umumiy daromadi 2023-yilda 2020-yilga nisbatan 300 martaga oshgan bo'lib, uning qiymati Oqsaroy tekstel MChJning daromadidan bir barobarga kam. Ammo xarajat ham 298 martaga oshgan bo'lib, 2023-yilda rentabellik darajasi 1,7 foizni tashkil qilgan. Korxonada paxta hosildorligi 2020-2023-yillarda 31,8  $\mu$ /ga dan 33,2  $\mu$ /ga ga ko'tarilgan. Ammo bu korxonada klaster sifatida tan olinib, klaster bo'g'inlaridan faqat tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan xalos. Bundan ko'rinib turibdiki, EMG Inter Investment MChJ tomonidan innovatsion texnologik transfer amalga oshiilmagan. Shu bois texnologik transferlarning iqtisodiy samarasini hisoblash va klaster atrofidagi subyektlarda qo'llash yo'llarini joriy qilish lozim.

### 7-jadval

#### **Qashqadaryo viloyati to'qimachilik klasterlarining innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari<sup>18</sup>**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad	mlrd. so'm	141,3	211,2	1152,5	3412,8	4837,9	34,2
Xarajat	mlrd. so'm	141,8	326,4	1667,9	3 317,1	4125,8	29,1
Sof foyda	mlrd. so'm	-0,53	-115,2	-515,4	95,6	711,9	X
Rentabellik, %	mlrd. so'm	x	X	x	2,9	17,3	X
Texnologik transfer xarajatlari	mlrd. so'm	227,6	1181,04	1765,9	1819,4	3882,6	17,1
Asosiy vositalar	mlrd. so'm	178,8	713,4	1012,6	1365,8	1789,2	10,0
Tovar moddiy zaxiralar	mlrd. so'm	49,3	695,2	1934,8	2219,6	3912,8	79,2
Ishchilar soni	Kishi	5596	6383	7212	8159	7872	1,4

Qashqadaryo viloyatida to'qimachilik klasterlarining soni 19 tani tashkil qiladi. Jami to'qimachilik klasterlari bo'yicha sotishdan tushgan daromad 2023-yilda 4837,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbata 34,2 martaga oshgan. Qilingan xarajatlarda esa mos ravishda 29,1 martaga oshganligini 6-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

### 8-jadval

#### **Qashqadaryo viloyati to'qimachilik klasterlarining o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlari<sup>19</sup>**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish marta
Sotishdan tushgan daromad	mlrd. so'm	7,435	11,117	60,658	179,621	254,625	34,2
Xarajat	mlrd. so'm	7 463	17,178	87,783	174,585	217,152	29,1
Sof foyda	mlrd. so'm	-0,278	-6,061	-27124,5	5,036	37,472	X
Rentabellik, %	mlrd. so'm	x	X	X	2,9	17,3	X
Texnologik transfer xarajatlari	mlrd. so'm	11,9	62,2	92,9	95,8	204,3	17,1
Asosiy vositalar	mlrd. so'm	9,4	37,6	53,3	71,9	94,2	10,0
Tovar moddiy zaxiralar	mlrd. so'm	2,6	36,6	101,8	116,8	205,9	79,2
Ishchilar soni	Kishi	295	336	380	429	414	1,4

<sup>18</sup> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>19</sup> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Sof foyda 2019-2021-yillarda ko‘rilmagan. Faqatgina 2022-2023-yillarda sof oyda ko‘rilgan bo‘lib, 2023-yilda sof foyda 711,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 616,3 mlrd. so‘mga oshgan. Rentabellik darajasi mos ravishda 2,9-17,3 ni tashkil qilgan. Klasterlar tomonidan 2023-yilda texnologik tranferlar 3 882,6 mlrd.so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 17,1 martaga oshgan. 2019-2023-yillarda klasterlar bazasidagi asosiy vositalar 10,1 marga, tovar moddiy zahiralardan foydalanish esa 79,2 martaga ortgan. Hududiy nuqtai nazardan klasterlarning soniga nisbatan o‘rtacha samardorlikni hisoblash muhim hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyatida 2023-yilda har bir klasterga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yalpi daromad 254,625 mlrd.so‘mni tashkil qilgan, xarajatlar esa 217,152 mlrd.so‘mga to‘g‘ri kelgan. Texnologik transfer xarajatlari esa 204,3 mlrd.so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 17,7 martaga oshgan.

### 9-jadval

#### Qashqadaryo viloyati “Oqsaroy” klasterining samardorlik ko‘rsatkichlari<sup>20</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarish,marta
Sotishdan tushgan daromad	mlrd. so‘m	108,6	137,8	167,5	180,1	445,7	4,1
Xarajat	mlrd. so‘m	108,5	137,5	166,6	128,9	324,5	3,0
Sof foyda	mlrd. so‘m	0,057	0,230	0,930	51,2	121,2	212,6
Rentabellik,%	mlrd. so‘m	0,1	0,2	0,6	39,7	37,4	X
Texnologik transfer xarajatlari	mlrd. so‘m	187,6	114,4	242,0	77,068	445,2	2,4
Asosiy vositalar	mlrd. so‘m	152,8	206,4	211,1	244,5	34,7	2,2
Tovar moddiy zaxiralar	mlrd. so‘m	34,7	95,6	145,2	74,6	180,6	5,2
Ishchilar soni	Kishi	1 740	1761	1824	1824	1 756	1,0

Klasterlar ichida o‘rtacha daromad qiluvchi “Oqsaroy” klasterining samardorlik ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu klasterda sotishdan tushgan daromad 445,7 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 4,1 martaga oshib, xarajatlar esa 3,7 martaga o‘sgan. Sof foyda 2023-yilda 121,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 212,6 martaga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 2023-yilda texnologik transfer xarajatlari 2023-yilda 445,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 2,4 martaga oshgan.

### 10-jadval

#### Qashqadaryo viloyati to‘qimachilik klasterlarining o‘rtacha samardorlik ko‘rsatkichlari<sup>21</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Sotishdan tushgan daromad ( $S_t$ )	mlrd. so‘m	7,435	11,117	60,658	179,621	254,625
Xarajat $X_t$	mlrd. so‘m	7 463	17,178	87,783	174,585	217,152
Texnologik transfer xarajatlari ( $\epsilon$ ) $\epsilon$	mlrd. so‘m	11,9	62,2	92,9	95,8	204,3

Qashqadaryo viloyati klasterlarining o‘rtacha samardorligi va “Oqsaroy” klasterining samardorlik ko‘rsatkichlarining marjinal o‘shishini tahlil qilamiz.

<sup>20</sup> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>21</sup> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, klasterlar 2019-2021-yillar davomida foyda bilan chiqmagan. Ammo keyingi ishlab chiqarishlar uchun yangi texnologiyalar, asosiy vositalar keltirilgan. "Oqsaroy" klasterida esa samaradorlik ko'rsatkichlari o'sib borgan. Qashqadaryo viloyati klasterlarining o'rtacha samaradorligi ko'rsatkichlarining marjinal o'sishini ko'rib chiqamiz.

$$D_{do'} = \frac{\Delta S_t}{\Delta t_t} = \frac{S_{t2} - S_{t1}}{t_{t2} - t_{t1}} \quad (13)$$

$D_{do'}$  – viloyat bo'yicha klasterlarning qo'shimcha bir so'mlik texnologik xarajat sarflash evaziga umumiy daromadning o'sgan qismi.

$\Delta S_t$  – viloyat bo'yicha sotishdan tushgan daromadning o'zgarishi.

$\Delta t_t$  – viloyat bo'yicha texnologik xarajatlarning o'zgarishi.

$$L_{do'} = \frac{\Delta X_t}{\Delta t_t} = \frac{X_{t2} - X_{t1}}{t_{t2} - t_{t1}} \quad (14)$$

$L_{do'}$  – viloyat bo'yicha qo'shimcha bir so'mlik texnologik xarajat sarflash evaziga umumiy xarajatning o'sgan qismi.

$\Delta X_t$  – viloyat bo'yicha umumiy xarajatlarning o'zgarishi.

$$D_{do' 2022-2023} = \frac{254,625 - 179,621}{204,343 - 95,760} = \frac{75,004}{108,760} = 0,69$$

$$L_{d 2022-2023} = \frac{217,157 - 174,585}{204,343 - 95,760} = \frac{42,587}{108,760} = 0,39$$

Qashqadaryo viloyatida klasterlarning texnologik xarajatlarga nisbatan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

➤ texnologik xarajatlarning bir birlikga oshirilishi daromadlarni 0,69 birlikga o'sishini ko'rsatadi.

➤ texnologik xarajatlarning bir birlikga oshirilishi xarajatlarning 0,39 birlikga o'sishini yuqoridagi hisob kitoblardan ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida klasterlarning texnologik xarajatlarga mablag' ajratilishi daromadining oshishiga olib kelgan. Ammo bu ma'lum texnologik davrni o'z ichiga olib, qo'shimcha bir birlik oshirish  $D_d = L_d$  teng bo'lgunga qadar davom etadi. Hozirgi holatda esa viloyat hududida faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarda  $D_d > L_d (0,69 > 0,39)$  qo'shimcha innovatsion texnologiyalarga mablag' sarflash imkoniyati mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

## 11-jadval

### Qashqadaryo viloyati "Oqsaroy tekstel" MChJ (klaster) ning samaradorlik ko'rsatkichlari<sup>22</sup>

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil I	2022-yil	2023	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish, marta
Sotishdan tushgan daromad ( $S_t$ )	mlrd. so'm	108, 641	137,823	167, 498	180,172	445, 684	4,1
Xarajat ( $X_t$ )	mlrd. so'm	108, 584	137,593	166, 568	128, 953	324, 458	3,0
Texnologik transfer xarajatlari ( $t$ ) <sub>t</sub>	mlrd. so'm	187,601	114,402	242, 027	77,068,0	445, 231	2,4

<sup>22</sup> Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

$$D_{d2022-2023} = \frac{445,684 - 180,172}{445,231 - 77,068} = \frac{265,512}{368,163} = 0,721$$


$$L_{d2022-2023} = \frac{324,458 - 128,953}{445,231 - 77,068} = \frac{195,505}{368,163} = 0,53$$

“Oqsaroy” klasterining texnologik xarajatlarga nisbatan o‘rtacha samaradorlik ko‘rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

texnologik xarajatlarning bir birlikga oshirilishi daromadlarni 0,721 birlikga o‘shirishini ko‘rsatadi.

texnologik xarajatlarning bir birlikga oshirilishi xarajatlarning 0,531 birlikga o‘shirishini yuqoridagi hisob kitoblardan ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, texnologik transfer xarajatlari “Oqsaroy” klasterining daromadining oshishiga sabab bo‘lgan. Ammo bu ma‘lum texnologik davrni ichiga olib,  $D_d = L_d$  teng bo‘lgunga qadar davom etadi. Hozirgi holatda esa  $D_d > L_d$  ( $0,721 > 0,531$ ) qo‘shimcha bir birlik innovatsion texnologiyalarga mablag‘ sarflash imkoniyati mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.



#### 4-rasm. Innovatsion klasterlarning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmi<sup>23</sup>

4-rasmda keltirilgan innovatsion klasterning namunaviy tashkiliy iqtisodiy mexanizmi bozor iqtisodiyoti sharoitida M.Porterning “Erkin borzor” nazariyasiga asoslanib, unda innovatsion mahsulotlar va ishlanmalar ishlab chiquvchi klasterlar zanjiri ifoda etilgan. Ushbu mexanizm davlat aralashuvisiz mustaqil xususiy holda shakllantiriladi.

Innovatsion klasterlar innovatsion tayyor mahsulotni istemolchilarga va innovatsion ishlanmalarni buyurtmachilarga taklif etadi. Innovatsion mahsulotlar bozorini onlayn va oflayn tarzda shakllantirilib, fyuchers bitimlari, to‘g‘ridan to‘g‘ri

<sup>23</sup> M.Porterning “Erkin bozor” nazariyasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

shartnomalar, hamkorlik shartnomalari va ayriboshlashning boshqa shakllaridan foydalangan holda iqtisodiy munosabatga kirishadilar.

Mexanizmida tashkiliy tuzilmaning hududlar bo'yicha vakilliklari real sektor, jismoniy shaxslar, davlat va boshqa buyurtmachilar bilan shartnomalar imzolaydi. Shuningdek, innovatsion ishlanmalar taqdim qiluvchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari, texnoparklar, aholining innovator qatlami bilan hamkorlikni tashkil qiladi. Innovatsiyalarni tahlil qilish bo'limi innovatsion mahsulotni tovar yoki ishlanma sifatida innovatsiyalar bozoriga olib chiqishni taklif etadilar.

Dissertatsiyaning "Mintaqani innovatsion rivojlantirish va uning istiqbollari" nomli uchinchi bobida xorijiy tajribalar o'rganilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash xususiyatlari tahlil etilgan hamda Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti va tarmoqlari tarkibidagi innovatsion mahsulotning o'sishi 2025-2029-yillardagi prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Innovatsion ishlab chiqarish yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, jarayonga yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu YaHMning o'sishiga olib keladi. Mintaqa iqtisodiyotida innovatsiyalar asosida qo'shilgan qiymatni yaratish, jarayonda barcha iqtisodiy sektorlarning qamrovini ta'minlashga yo'naltirilgan strategik yondoshuvlar mintaqa iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarishi hajmining tarkibida innovatsion mahsulot (xizmat)lar ulushining, tarmoqlarning qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatini oshirishni maqsad qiladi.

Mintaqani innovatsion rivojlantirish istiqbollarini rejalashtirish, maqsadni amalga oshirishda jarayon vaqtini tezlashtirish, mintaqaning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini baholash va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishda mintaqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining keyingi davrlardagi o'zgarish tendensiyasini oldindan kuzatish imkonini yaratish – bu aniq va sifatli prognoz parametrlariga ega bo'lish bilan amalga oshadi.

Bugungi kunda mintaqani innovatsion rivojlantirish iqtisodiy salohiyat parametrlarini ko'tarishning eng asosiy talabidir. Shu sababli mintaqa iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini kuzatish, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash asosida innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash katta ahamiyat kasb etadi.

Mintaqani innovatsion rivojlantirish istiqbolli ko'rsatkichlarini prognozlashtirishda iqtisodiy modellar (modellashtirish usuli)dan foydalanish bugungi zamonaviy amaliyotda yetakchilik qilmoqda. Shu ma'noda tadqiqotimizda innovatsion rivojlantirishning prognoz parametrlarini hisoblash uchun jarayonni turli tarmoqlar darajasida aks ettiruvchi iqtisodiy modellar ishlab chiqildi. Modellashtirish jarayonida natijaviy (Y) va ta'sir etuvchi (X) omillar tizimini shakllantirib oldik. Bu yerda (Y) turkumiga kiruvchi biror miqdoriy kattalik, o'z navbatida (X) turkumga ham tegishli bo'lishligi mumkin.

(Y) va (X) turkum omillari bo'yicha quyidagi belgilashlarni amalga oshirildi. Jumladan,

Y1 – mintaqada sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm;

Y2 – mintaqada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd, so'm;

Y3 – mintaqada xizmat ko‘rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi, mlrd. so‘m;

Y4 – mintaqa YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi, mlrd. so‘m;

X1 -mintaqada innovatsion mahsulot (xizmatlar) uchun xarajatlar, mlrd. so‘m;

X2 – mintaqada ilmiy-texnik xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m;

X3 – mintaqada ta‘lim sohasidagi umumiy xizmatlar, mlrd. so‘m;

X4 - mintaqada OTM professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, foizda;

X5–mintaqada innovatsion loyihalar turkumida bajarilgan xo‘jalik shartnomalari hajmi, mln. so‘m;

X6– mintaqada ta‘lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish xarajatlari, mln so‘m.

Ushbu omillarning barchasi miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, statistik nuqtai nazaridan deflyator o‘zgarishini hisobga olgandagina taqqoslash imkoni bo‘ladi. Shu sababli barcha ko‘rsatkichlar 2019-yil narxlar indeksi bo‘yicha real qiymatlarida qayta hisoblab chiqildi

Qashqadaryo mintaqasida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi (Y1)ning empirik funksiyasi:

$$\begin{aligned} \ln Y_1 &= -11,2068 + 0,312 \cdot \ln X_3 - 0,5647 \cdot \ln X_5 + 3,2264 \cdot \ln X_6 \\ t &= (-21,42) \quad (3,06) \quad (-4,88) \quad (23,35) \\ p &= (1,16 \cdot 10^{-12}) \quad (0,0078) \quad (0,00019) \quad (3,31 \cdot 10^{-13}) \end{aligned} \quad (15)$$

Qashqadaryo mintaqasida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi (Y2) ning empirik funksiyasi:

$$\begin{aligned} Y_2 &= 1451,544 + 0,393 \cdot X_1 + 0,6555 \cdot Y_1 - 670,13 \cdot Q_1 \\ t &= (12,40) \quad (2,86) \quad (4,22) \quad (-2,71) \\ p &= (2,75 \cdot 10^{-9}) \quad (0,012) \quad (0,0007) \quad (0,016) \end{aligned} \quad (16)$$

Bu yerda Q1 – model tarkibiga yordamchi omil sifatida qishloq xo‘jaligida oxirgi uch yillikdagi nointensiv yondoshuvlarning saqlanib qolish holatlari uchun kiritilgan.

Qashqadaryo mintaqasida xizmat ko‘rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi (Y3)ning empirik funksiyasi:

$$\begin{aligned} Y_3 &= -534,6926 + 14,41722 \cdot X_2 + 169,78793 \cdot Q_2 \\ t &= (-13,49) \quad (33,81) \quad (2,27) \\ p &= (3,7 \cdot 10^{-10}) \quad (2,6 \cdot 10^{-16}) \quad (0,037) \end{aligned} \quad (17)$$

Bu yerda Q2 – model tarkibiga yordamchi omil sifatida xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida pandemiya oqibatlarini yumshatishda oxirgi ikki yillikda innovatsiyalarning noaniq ta‘sirini hisobga oluvchi ikkilik parametri.

Qashqadaryo mintaqasida YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi (Y4)ning empirik funksiyasi:

$$\begin{aligned} \ln Y_4 &= 2,85909 + 0,6609 \cdot \ln X_3 + 0,723787 \cdot \ln X_4 \\ t &= (5,84) \quad (6,54) \quad (3,99) \end{aligned} \quad (18)$$

$$p = (2,5 \cdot 10^{-5}) (6,9 \cdot 10^{-6}) (0,0011)$$

11 va 12-jadvallarda keltirilgan. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion salohiyatining trend va ko'p omilli empirik funksiyalar asosida hisoblangan prognoz ko'rsatkichlari o'rtasida kichik farqning mavjudligida. Aniqroq aytganda, ko'p omilli empirik funksiyalar asosida hisoblangan prognoz ko'rsatkichlari trend modellar bo'yicha olingan natijalardan biroz katta miqdorlanmoqda.

## 12-jadval

### Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion salohiyatining ko'p omilli empirik funksiyalar asosida hisoblangan prognoz ko'rsatkichlari<sup>24</sup>

Prognoz yillari	Sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd, so'm	Xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm	YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm
	Y <sub>1</sub>	Y <sub>2</sub>	Y <sub>3</sub>	Y <sub>4</sub>
2025	5801,567	5734,976	3353,440	15389,384
2026	6462,945	5970,112	3806,154	16674,398
2027	6979,981	6220,856	4190,576	18091,385
2028	7712,879	6500,794	4714,398	19680,532
2029	8584,434	6773,827	5313,126	21487,795
O'rtacha o'sish, %	<b>110,31</b>	<b>104,18</b>	<b>111,95</b>	<b>108,62</b>
2029 yilda 2023 yilga nisbatan	<b>1,76</b>	<b>1,24</b>	<b>1,88</b>	<b>1,63</b>

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion salohiyatini prognozlashtirishning ko'p omilli modellari asosida istiqboldagi parametrlar hisoblanganda, jumladan, sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi keyingi besh yillikda 1,75 barobarga ortishi, o'rtacha o'sish sur'ati 10,3 foizni tashkil etishi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi 1,24 barobarga oshishi va o'rtacha o'sish sur'ati 4,2 foizni tashkil etishi, xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi 1,88 barobarga oshishi va o'rtacha o'sish sur'ati 12 foizni tashkil etishi, mintaqa YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi 1,63 barobarga oshishi va o'rtacha o'sish sur'ati 8,6 foizni tashkil etishini ko'rish mumkin.

24 Muallif tomonidan hisoblangan. qiymatlar 2019-bazis yil bo'yicha real qiymatlarda berilgan.

**Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion salohiyatining  
prognoz ko'rsatkichlari<sup>25</sup>**

Prognoz yillari	Sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd, so'm	Xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm	YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm
	Y <sub>1</sub>	Y <sub>2</sub>	Y <sub>3</sub>	Y <sub>4</sub>
2025	5815,147	5732,329	3370,457	15269,99
2026	6437,495	5954,884	3790,83	16527,74
2027	7003,376	6185,242	4187,895	17880,09
2028	7692,891	6430,198	4665,497	19347,14
2029	8467,439	6671,701	5191,389	20951,86
O'rtacha o'sish, %	<b>109,92</b>	<b>103,86</b>	<b>111,44</b>	<b>108,43</b>
2029 yilda 2023 yilga nisbatan	<b>1,74</b>	<b>1,22</b>	<b>1,84</b>	<b>1,59</b>

Bu yerda ko'p omilli modellarning afzalligini asoslashda, ular tarkibidagi muhim ta'sir yaratuvchi omillarning ishtirok etishi va ularning istiqbolli ko'rsatkichlari natijaviylikni aks ettirishida jarayonni kengroq tushunish imkoniyatini berishi bilan xarakterli ekanligini hisobga olishi e'tiborlidir.

Shu sababli tadqiqotimiz jarayonida mazkur modellarni birlashtirish va umumiy natijalarga asoslanish zarur deb hisoblaymiz. Bu yerda ikki holatda hisoblangan ko'rsatkichlar o'rta qiymatlariga asoslangan prognoz parametrlariga ega bo'lamiz (9-jadval).

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning prognoz natijalari:

- sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 9,92 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,74 barobarga ortadi;

- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tarkibidagi innovatsion mahsulotlar hajmi 2025-2029-yillarda o'rtacha 3,9 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,22 barobarga ortadi;

- xizmat ko'rsatish hajmi tarkibidagi innovatsiyalar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 11,4 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,84 barobarga ortadi;

- mintaqa YaHM tarkibidagi umumiy innovatsiyalar hajmi keyingi 2025-2029-yillar uchun o'rtacha 8,4 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2029-yilda 2023 yilga nisbatan 1,59 barobarga ortishi ta'minlanadi.

<sup>25</sup> Muallif tomonidan hisoblangan. qiymatlar 2019-bazis yil bo'yicha real qiymatlarda berilgan.

## XULOSA

Tadqiqot davomida olingan asosiy ilmiy xulosa va amaliy natijalar quyidagilardan iborat.

1. Innovatsiyalarga nazariy yondashuvlarda birinchidan, g'oyalarning amaliyotga joriy qilinishi, ikkinchidan, xarajatlarni minimallashtiruvchi natija, uchinchidan, istemolchi tan olgan yangi mahsulot tarzda evolyusion ta'riflar keltirilgan. Shunga asoslanib, bizning fikrimizcha, mintaqada innovatsion rivojlanish - hududlarda mavjud resurslar salohiyatidan fan-texnika taraqqiyotidan foydalangan holda istiqbolni belgilash jarayonidir.

2. Mintaqani innovatsion rivojlantirishda hududlar konsentratsiyasini, innovatsion siyosatning maqsadlarini mavjud resurslar va hizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashuvi hamda ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlariga mos holda tizimlashtirish lozim.

3. Mintaqada innovatsion rivojlanish jarayoniga ekzogen va endogen ta'sir qiluvchi omillar ta'sir qiladi. Ekzogen omillar innovatsiya ob'ektlariga va unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni tashkil qilish, kengayishi va rivojlanishi nazarda tutiladi. Endogen turida esa, infratuzilma obyektlari o'rtadagi uzviylik, ushbu soha kengayishi va rivojlanishi e'tiborga olinadi. Ya'ni, bir turdagi infratuzilma ikkinchi bir xizmat turini talab etishi hisobiga soha rivojlanadi. Infratuzilmani kengaytirishda iqtisodiy rag'batlantirishga, ya'ni, asosiy kapitalga hamda innovatsion rivojlanishga investisiyalarni oshirish, bunda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra davlat-xususiy sherikchilikni joriy qilish muhim.

4. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda buyurtmachilar tomonidan moliyalashtirilgan innovatsiyalarga xarajatlar jamiga nisbatan 23-24 foizni tashkil qilib, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 9,2 foizga o'sgan. Ushbu sohada xorijiy manbalardan jamiga nisbatan 2019-yilda bir foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 5 foizni tashkil qilib, keyingi besh yilda 7,6 martagagina oshganligi aniqlandi.

5. Qashqadaryo viloyatida innovatsion jarayonlarni tahlil qilish asosida 2010-2015-yillar davomida qo'shilgan qiymatning 1 foizga oshishi joriy qilingan innovatsiyalarning sonini 13,25 foizga oshishi, 2015-2019-yillar davomida 2,55 foizga, 2019-2023-yillar davomida 10,1 foizga, 2010-2023-yillar o'zgarishni hisobga olinganda qo'shilgan qiymatning 1 foizga oshishi joriy qilinadigan innovatsiyalar sonini 4,5 foizga oshishi aniqlandi.

6. Qashqadaryo viloyatida qo'shilgan qiymat hajmining o'sishi asosida joriy qilinadigan innovatsiyalar sonining o'zgarishini tahlili asosida qo'shilgan qiymat 2023-yildagiga nisbatan 0,28 mln. so'mga oshganda joriy qilinadigan innovatsiyalar soni 288 birlikka oshadi, 0,58 mlrd. so'mga oshganda 597 birlikka oshadi, 1 mlrd.so'mga oshganda joriy qilinadigan innovatsiyalar soni 1029 taga yetishi mumkinligi hisoblandi.

7. Qashqadaryo viloyatida klasterlarning texnologik xarajatlarga nisbatan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi daromadlarni 0,69 milliardga o'sishini, texnologik xarajatlarning bir milliardga oshirilishi xarajatlarning 0,39 milliardga o'sishi hisoblanib, qo'shimcha daromad qilish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Ushbu

imkoniyat tugashi va uning hayotiy siklini o'zaytirish uchun innovatsion klasterlarni tashkil etish lozim.

8. Iqtisodiyotni sanoatlashtirish jarayonida asosiy omillardan biri – investisiya va uning muhim ko'rsatkichi – meyori hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida investitsiya meyori 2013-2023-yillarda o'rtacha 23,3 foizga teng bo'lgan. Ushbu darajani oshirish uchun Qashqadaryoda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish hamda qo'shni mamlakatlar bilan chegaradoshligini hisobga olib infratuzilmani rivojlantirish lozim.

9. Viloyatda sanoat mahsulotlarida hosil qilingan qo'shilgan qiymatda innovatsion mahsulotlarning ulushi 17 foizni, bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida 41,1 foizni, xizmat ko'rsatishda 35 foizni, qurilish ishlarida 7 foizni tashkil qilgan. Bunda qishloq xo'jaligining ulushi yuqoriligi tarmoqda klasterlarning tashkil qilinishi evaziga ishlab chiqarilgan yangi va takomillashtirilgan tayyor mahsulotlarning ko'payishi bilan tavsiflanadi.

10. Qashqadaryo viloyatida YaHM o'sishiga sanoat, xizmatlar kabi tarmoqlar ta'siri baholandi. Aniqlangan koeffitsiyentlarni ifodalashicha, sanoatning 1 foizga o'sishi YaHMning 0,09 foizga, xizmatlarning 1 foizga o'sishi YaHMning 0,32 foizga o'sishiga, qishloq xo'jaligining 1 foizga o'sishi ham YaHMni 0,32 foizga o'sishiga olib kelmoqda. Mintaqada hanzuz qishloq xo'jaligining ta'siri va ko'lami yuqoriligi bois yengil va oziq-ovqat sanoatini kengaytirish zarur.

11. Qashqadaryo viloyatida 2013-2023-yillardagi YaHMning o'rtacha o'sishi 7,5 foiz, kapitalning hissasi esa 5,2 foiz, mehnatning ulushi 2 foiz va omillar yalpi unumdorligining ulushi 0,3 foizga teng. Mintaqada iqtisodiy o'sishning tadqiqot davridagi o'rtacha darajasini 100 foiz deb olsak, uning 69,4 foizi kapitalga, 26,4 foizi mehnatga va 4,2 foizi omillar yalpi unumdorligiga tegishli bo'lgan. Ya'ni, mehnat omilining hissasi keskin tebranishlarni aks ettirmayotgan bo'lsa-da, investitsiyalar o'sish sur'atlariga muvofiq tebranishlarga ega bo'lmoqda. Shuningdek, omillar yalpi unumdorligi investitsiyalar darajasiga teskari tartibda o'zgarmoqda. Buning sababi, investitsiyalar hisobiga shakllangan ish o'rinlari uchun doimo mos malakali ishchi kuchi mavjud emasligidandir. Ya'ni, yirik investitsion loyihalar uchun o'rtacha 2-3 yil talab etilayotgan bo'lsa, mos malakali kadrlar tayyorlash uchun esa 5-6 yil kerak bo'lib, 2-3 marta ko'p vaqt sarfi talab qilinmoqda. Bu mazkur masalani samarali hal etish yo'li innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ekanligidan dalolat beradi.

12. Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud infratuzilma faoliyatini baholash, uning tuman va shaharlar kesimidagi nisbiy ustunliklarini aniqlash zarur. Shuningdek, hududiy nisbiy ustunliklarni soha va tarmoqlar bo'yicha ham o'rganish muhim. Chunki, bu tuman va shaharlarning nisbiy ustunliklarini o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

---

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ  
РАЙХАНА БЕРУНИ**

**БЕКМУРОДОВА САОДАТ ИКРОМОВНА**

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ  
РЕГИОНА (НА ПРИМЕРЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ  
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**08. 00. 12 — “Региональная экономика”**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ургенч – 2025**

**Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.4.PhD/Iqt4773.**

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Курбонов Алишер Бобокулович  
кандидат экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Досчанов Тангриберган Досчанович  
доктор экономических наук, профессор  
Жураев Хусан Отамуродович  
доктор философии по экономическим наукам, доцент

**Ведущая организация:** Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамид Олимжон, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамид Олимжон, 14. Тел.: (99862) 224-67-00. e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**И. С. Абдуллаев**  
председатель диссертационного  
совета по присуждению учёных  
степеней, д.э.н., профессор

**Т. Ж. Рахимов**  
ученый секретарь научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, PhD., доцент

**Б. Рузметов**  
председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Эволюционное развитие мировой экономики показывает, что без обеспечения стабильности регионов через смену социально-экономических формаций невозможно достичь экономического роста. Вопрос полного использования имеющихся в регионе ресурсов сегодня повышает значимость инновационного развития. По этой причине в развитых странах для развития отраслей, обслуживающих инновации, выделяется 5–7 % валового внутреннего продукта<sup>26</sup>. В результате это создаёт возможности для выхода производства на новый уровень, появления новых рабочих мест и профессий, а также повышения материального и культурного уровня жизни, что, в свою очередь, способствует росту экономического развития регионов.

Для обеспечения социально-экономического подъёма регионов в мире проводится множество научных исследований по внедрению инноваций во все сферы экономики и разработке механизмов стимулирования их материальной и финансовой поддержки со стороны государственных и частных отраслей. На основе поддержки инновационной инфраструктуры со стороны государств в ряде зарубежных стран были достигнуты значительные научные результаты. В частности, в США был объявлен проект «Stargate» стоимостью 500 млрд долларов с целью развития инфраструктуры искусственного интеллекта и повышения эффективности научно-исследовательских работ в этой области<sup>27</sup>.

Исходя из региональных особенностей Республики Узбекистан, для обеспечения их инновационного развития проводится ряд организационных, экономических и правовых мероприятий. В регионах поставлены задачи по разработке мер поддержки инновационного экономического развития, созданию благоприятной среды для размещения капитала в частном секторе и инвестиционной привлекательности, дальнейшему развитию социальной сферы, в том числе совместно с государством — по созданию новой инновационной инфраструктуры, внедрению инноваций для населения, формированию новых рабочих мест и профессий. Для реализации этих задач в регионах республики проводится изучение природных и трудовых ресурсов, а также их потенциала, составление межотраслевого баланса с учётом региональных особенностей, проведение глубоких исследований по развитию и перспективам инноваций с целью обеспечения экономического роста, что определяет актуальность данного направления.

Корнельский университет США, бизнес-школа Insead во Франции и Всемирная организация интеллектуальной собственности 20 сентября опубликовали рейтинг Глобального инновационного индекса. Республика Узбекистан заняла 86-е место среди 132 стран. Ранее наша страна занимала 93-е место в 2020 году и 122-е место в 2015 году. По субиндексу «Ресурсы и условия для внедрения инноваций» Узбекистан поднялся на 6 позиций по сравнению с

<sup>26</sup>Источник: <https://www.oecd.org/eurasia/competitiveness-programme/eastern-partners/Strengthening-the-Role-of-Private-Finance-in-Infrastructure-Development-in-Eastern-Partner-Countries-RUS.pdf>. OECD 2020, 100 p.

<sup>27</sup> <https://zamin.uz/dunyo/143108-500-milliardlik-sunij-intellekt-lojihasi-stargate-elon-qilindi.html>

прошлым годом, заняв 75-е место; по субиндексу «Практические результаты внедрения инноваций» страна поднялась на 18 позиций, заняв 100-е место. Согласно рейтингу, сильными показателями Узбекистана на мировом уровне являются: «Количество выпускников в области науки и инженерии» — 7-е место, «Простота ведения бизнеса» — 8-е место, «Производительность труда» — 8-е место, «Общий объём накопленного капитала» — 7-е место, «Расходы государства на образование» — 28-е место<sup>28</sup>.

Данная диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № PF-44947 «О стратегии действий по развитию Республики Узбекистан», Указ Президента от 28 января 2022 года № PF-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ Президента от 11 сентября 2023 года № PF-158 «О стратегии «Узбекистан–30»», Постановление Президента от 1 мая 2020 года № PQ-4702 «О внедрении системы оценки рейтинга социально-экономического развития регионов», Постановление Президента от 16 октября 2020 года № PQ -4864 «О мерах по формированию программ развития социальной и производственной инфраструктуры Республики Узбекистан», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** В научных исследованиях зарубежных и отечественных учёных в определённой степени изучены вопросы обеспечения экономической устойчивости региона, совершенствования механизма государственной поддержки инноваций, развития инновационной деятельности, а также определения её факторов, источников и выявления региональных особенностей.

Зарубежные учёные уделяли основное внимание расширению инновационной деятельности в процессе социально-экономического развития регионов. В частности, в исследованиях таких учёных, как П. Самуэльсон, В. Нордхаус, Р. Нуркс, А. Хиршман, У. Росту, Х. Зингер, Ш. Бикрам, Ф. Дэниел, рассматривались вопросы инфраструктуры, её региональных особенностей, факторов воздействия и проблем развития. В исследованиях учёных стран СНГ, таких как М. Подпругин, Л. Сомартова, Н. Порядкина<sup>29</sup>, изучалось устойчивое развитие регионов, тогда как работы И. Рахмеевой, А. Горбуновой, Л.

<sup>28</sup> Global innovation Index 2021 “Tracking innovation through the Covid-19 Crises”.

<sup>29</sup> Подпругин М.О. Устойчивое развитие региона: понятие, основные подходы и факторы // Российскойское предпринимательство.– 2012. – № 24. – С. 214-221; Сомартова, Л.В. Факторы устойчивого развития региональных социально-экономических систем / Л.В. Сомартова // Вестник СОГУ им. К.Л. Хетагурова. 2010. № 3. С. 22-27; Порядкина Н.Н. Зарубежный опыт управления социальноэкономическим развитием территорий // ВЕСТНИК ОГУ №8 (144)/август 2012. –с.150-155.

